

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Y.22.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**SAYDIVALIYEVA XURSHIDA XODJIAKBAROVNA**

**OILAVIY MUNOSABATLARNI SHARTNOMAVIY-HUQUQIY  
TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.  
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата докторской диссертации**  
**Content of the abstract of doctoral dissertation**

**Saydivaliyeva Xurshida Xodjiakbarovna**

Oilaviy munosabatlarni shartnomaviy-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish .3

**Сайдивалиева Хуршида Ходжиакбаровна**

Совершенствование договорно-правового регулирования семейных отношений .....29

**Saydivalieva Khurshida Khodjiakbarovna**

Improvement of contractual regulation of family relations.....57

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....62

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Y.22.01  
RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**SAYDIVALIYEVA XURSHIDA XODJIAKBAROVNA**

**OILAVIY MUNOSABATLARNI SHARTNOMAVIY-HUQUQIY  
TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.  
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.DSc/Yu201 raqam bilan ro'yxatga olingan.**


Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.tsul.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.


<b>Ilmiy maslahatchi:</b>	<b>Ro'ziyev Rustam Djabbarovich,</b> yuridik fanlar doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Karaxodjayeva Dilorom Mamirovna,</b> yuridik fanlar doktori, professor <b>Borotov Mirodiljon Xomudjonovich,</b> yuridik fanlar doktori, professor <b>Kuldashev Nuriddin Abduganiyevich,</b> yuridik fanlar doktori, professor
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti</b>

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/30.12.2019.Y.22.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 25-oktabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36; faks: (998971) 233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1426-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100047, Toshkent shahar Amir Temur ko'chasi 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 6-oktabrda tarqatildi.  
(2025-yil 6-oktabrdagi 87-raqamli reyestr bayonnomasi).

  
**U. Rustambekov,**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
yuridik fanlar doktori, professor

  
**D.Y. Xabibullayev,**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
Ilmiy kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

  
**B.K. Xodjayev,**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi  
Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor



## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda globallashtirish jarayonlari oilaviy munosabatlarga sezilarli darajada o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Raqamlashtirish, gender tengligi, migratsiya jarayonlari hamda demografik o'zgarishlar an'anaviy nikoh instituti transformatsiyalashuvi, oiladagi rollar o'zgarishining yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. 2023-yilda Yevropa Ittifoqi doirasida eng past nikoh darajasi Sloveniyada (har 1000 kishiga 3,0 ta nikoh) va Italiyada (3,1) qayd etildi<sup>1</sup>. Maldiv orollari esa butun dunyo bo'yicha eng yuqori ajrashish darajasiga ega bo'lib, bu har 1000 kishiga yiliga 5,52 ta ajrashishni tashkil etdi. AQShda umumiy ajrashish darajasi har 1000 kishiga 2,7 ni tashkil qildi<sup>2</sup>.

Jahonda ajrashishlar sonining ko'payishi, ijtimoiy normalarning o'zgarishi va shaxslarning moliyaviy mustaqilligi ortishi tufayli nikoh shartnomalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, AQShda nikoh qurgan juftliklarning nikoh shartnomasini tuzish ko'rsatkichi 2010-yildagi 3 foizdan 2023-yilga kelib, 15 foizgacha ko'tarilgan, Buyuk Britaniyada esa juftliklarning taxminan 21 foizi nikoh kelishuviga ega<sup>3</sup>. Bu o'zgarish yosh avlod vakillari tomonidan qo'llanilib kelmoqda. Ular bu shartnomalarni ishonchsizlik belgisi sifatida emas, balki moliyaviy rejalashtirish, mulkni himoya qilish va biznes xavfsizligini ta'minlashning amaliy vositasi deb hisoblashadi. Bundan tashqari, ikkinchi nikoh va aralash oilalar sonining ko'payishi bunday kelishuvlarning meros masalalarini hal etish va huquqiy aniqlikni ta'minlash uchun zarur qilib qo'ydi.

O'zbekistonda oila institutini mustahkamlash, oilaviy qadriyatlarni asrab-avvaylash, oilada sog'lom ma'naviy muhitning barqarorligini saqlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda oilalar barqarorligini saqlash borasida olib borilayotgan sa'y-harakatlar barobarida, oilaviy nizo va ajrashish kabi holatlar mavjudligi kuzatilmoqda. 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida 271,8 mingta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti 7,3 promilleni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 0,5 promillega kamayganligi kuzatilgan (2023- yilda 7,8 promille bo'lgan). 2024-yilda 45,1 mingta nikohdan ajrashishlar qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkichlar oila a'zolari o'rtasidagi mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga solish, oilaviy nizolarni hal etishda muqobil usullarni qo'llash, oilaviy ajrashish jarayonida madaniy kelishuvga erishish, unda bolalarning huquq va manfaatlarini inobatga olish kabi masalalar yuzasidan tadqiqot olib borish hamda muammolar yuzasidan ilmiy yondashuvlarni o'rganish zaruratini namoyon qiladi.

Mazkur dissertatsiyada oilaviy munosabatlarni shartnomaviy-huquqiy tartibga solishning nazariy asoslari va amaliy jihatlari chuqur tahlil qilinadi. Xususan, nikoh shartnomasi, ota-ona o'rtasidagi bolalar tarbiyasi bilan bog'liq kelishuvlar hamda mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi boshqa shartnomalar va shaxsiy nomulkiy munosabatlarga oid kelishuvlarning huquqiy tabiati va rivojlanish istiqbollari tadqiq qilinadi.

---

<sup>1</sup> [https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Marriage\\_and\\_divorce\\_statistics](https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Marriage_and_divorce_statistics)

<sup>2</sup> <https://www.verywellmind.com/how-many-marriages-end-in-divorce-facts-and-figures>

<sup>3</sup> <https://lordslibrary.parliament.uk/law-relating-to-prenuptial-agreements>

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1996), O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi (1998), “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi (2008) hamda “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi (2014) Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-3808-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda “Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-208-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda “Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-401-son qarori, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2024-yil 27-dekabrda “Oila institutining huquqiy asoslarini takomillashtirish va oilaviy qadriyatlarni saqlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi KQ-29-V-son qarori va sohaga oid boshqa qonun hujjatlarining amalga oshirilishida ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishni nazarda tutuvchi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning II bo‘limida belgilangan “mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirishga doir ustuvor yo‘nalishi” asosida bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi**<sup>4</sup>. Oilaviy munosabatlarni shartnomaviy-huquqiy tartibga solish bo‘yicha tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va universitetlarida keng ko‘lamda olib borilmoqda. Indiana universiteti (AQSh), Garvard huquq maktabi (AQSh), Kaliforniya universitetining Berkeli huquq instituti (AQSh), Oksford universiteti (Angliya), Myunxen universiteti (Germaniya), Minnesota universiteti huquq maktabi (AQSh), Melburn universiteti (Avstraliya), Al-Azhar universiteti (Indoneziya) Volgograd davlat universiteti (Rossiya Federatsiyasi), Moskva davlat universiteti (Rossiya Federatsiyasi) ushbu yo‘nalishda tadqiqotlar olib borilayotgan yetakchi muassasalar qatorida e’tirof etilgan. Bu markazlarda er va xotinning mulkiy munosabatlari, oilaviy nizolarni hal etish, nikoh shartnomalari va ularning turlari, shuningdek, raqamlashtirish sharoitida oilaviy-huquqiy shartnomalarning istiqbollari o‘rganilmoqda.

Oilaviy-huquqiy shartnomalar hamda oilaviy munosabatlarni shartnomaviy-huquqiy tartibga solish masalasida ko‘plab mamlakatlarda ilmiy izlanishlar olib

---

<sup>4</sup> Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi <https://www.iu.edu/>, <https://law.umn.edu/>, <https://www.ubc.ca/>, <https://www.law.ox.ac.uk/>, <https://uai.ac.id/en>, <https://www.law.berkeley.edu/research/>, <https://www.family.law.cam.ac.uk/>, va boshqa manbalar asosida amalga oshirilgan.

borilmoqda. Jumladan, Garvard universitetida nikohgacha va nikoh davrida shartnomalarni tuzish ahamiyati va tendensiyasi, Minnesota universiteti huquq maktabida kelishuvlar orqali nikoh va ajrashish shartlarini o'zgartirish, surrogat onalik, ochiq farzandlikka olish, hamkorlikda tarbiyalash kabi turli mexanizmlar orqali ota-onalik huquqlarini shakllantirish, Volgograd universitetida raqamli texnologiyalardan foydalangan holda nikoh shartnomasini tuzishda er-xotinning mulkiy munosabatlarini huquqiy tartibga solish masalalari, Al-Azhar universitetida alohida parvarishga muhtoj bolalar uchun ota-onalik kelishuvlariga oilaviy muloqot uslublarining ta'siriga doir masalalar o'rganilmoqda.

Xorijda amalga oshirilayotgan tadqiqot ishlarida oilaviy-huquqiy shartnomalar orqali mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga solish, oilaviy nizolarni hal qilish, bolalar manfaatlarini himoya qilish hamda xalqaro tajribani qiyosiy tahlil qilish kabi yo'nalishlarga e'tibor qaratilmoqda.

Hozirgi paytda oilaviy munosabatlarni tartibga solish bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: oilaviy nizolarni suddan tashqari hal etish mexanizmlari, bolalar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan shartnomalarning huquqiy asoslari, mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi shartnomalarning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, ota-ona va bolalar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda shartnomalarning roli hamda elektron va raqamli shartnomalarni joriy etish imkoniyatlari va boshqalar.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasida fuqarolik va oila huquqi fani nuqtayi nazaridan yetarli darajada o'rganilmagan. Fuqaroviy va oilaviy munosabatlarni shartnomaviy-huquqiy tartibga solish bilan bog'liq ayrim muammolar mamlakatimiz olimlari – H.Rahmonqulov, I.B.Zokirov, F.M.Otaxo'jayev, R.D.Ro'ziyev, O.Okyulov, M.X.Borotov, I.I.Nasriyev, N.F.Imomov asarlarida ilmiy tahlil etilgan. Shuningdek, D.M.Karaxodjayeva, O.A.Karimova, N.A.Kuldashev, Z.N.Esanova, N.X.Rahmankulova, L.M.Burxonova, U.Sh.Sharaxmetova, Sh.R.Yuldasheva, L.J.Otegenova, Q.Sh.Hamrayev, M.M.Xayitov, E.H.Egamberdiyev, S.J.Tursunova, G.S.Inamdjanova, X.B.Abduraxmonova, N.R.Rustamova, N.J.Yusupova, N.A.Ashurova, J.A.Dadaboyeva, Z.K.Soliyeva, D.I.Babajanova, U.M.Maxmudxodjayevalar tomonidan oilaviy munosabatlar, oilada mulk huquqi, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlar, voyaga yetmagan bolalarning ta'minot olish huquqi, voyaga yetmaganlarning oiladagi mulkiy huquqlari, ota-onalik huquqidan mahrum etish masalalari o'rganilgan<sup>5</sup>.

Oilaviy munosabatlarni shartnomaviy-huquqiy tartibga solishning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlari MDH olimlari tomonidan o'rganilgan. Xususan, M.V.Antokolskaya, I.F.Aleksandrov, Y.S.Atroxovalar, I.A.Bannikov, G.V.Yeliseeva, A.N. Dubrovina, O.N.Nizamiyeva, L.A.Xursilava, S.Y.Chashkova, M.J.Mukanova, N.N.Tarusina, A.M.Gavrilov, T.N. Palkina, D.A.Kokova, A.M.Lushnikov, Y.G.Malinovskaya, A.S.Laletina, A.S.Gasparyan, O.V. Fetisova, S.S. Chekulayev, Y.A. Usacheva, O.V. Kapitova, S.A. Muratova, T.N. Punko, A.A.

---

<sup>5</sup> Ushbu va boshqa olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

Griivko va I.V. Zlobinalar nikoh shartnomasi, oilaviy-huquqiy shartnomalar tasnifi, oilaviy munosabatlarning turlari va oilaviy-huquqiy shartnomaning ahamiyati, oilaviy-huquqiy shartnomalar tizimi, oilaviy-huquqiy majburiyatlar, aliment munosabatlari, ota-ona va bola munosabatlarini tartibga solishga oid muammolarni tahlil qilganlar<sup>6</sup>.

Shuningdek, I.Sujono, Yue Qian, Yang Hu, N.Barker, S.S.Rizal, A.Wahid, N.Ibrahim, Z.Ariff, M.Musa, Asifa Quraishi, B.Brian, G.A.Debele, S.C.Rhode, R.Fairbairn, K.I.Schmidt, R. Fathallah, M. Carney, J. L. Payne, B.M. Smyth, M. Irving, G. Heard, G. Althor, R. Hartini, R. Tanzil Sayyaf, L. Anggraeni, J.Oldham, V.Bergmann, G. S. Becker, A.W.Dnes, Margaret F. Brinig, M. M. Shultz, A.Sanders, I. Smith, N. Fremeaux, M. Leturcq kabi xorijlik olimlar nikohgacha tuziladigan nikoh shartnomasi, raqamlashtirish sharoitida bolalarni tarbiyasiga oid oilaviy munosabatlar hamda oilaviy-huquqiy shartnomalar borasida tadqiqotlar olib borganlar<sup>7</sup>.

Oilaviy munosabatlarni tartibga solish vositasi sifatida oilaviy-huquqiy shartnomalarning tizimi va turlari bilan bog‘liq masalalar yuqorida keltirilgan tadqiqot ishlarida olimlar tomonidan kam tahlil qilingan hamda nazariy va amaliy jihatdan kompleks izlanish olib borilmagan. Aksariyat tadqiqotlarda nikoh shartnomasi masalasiga ko‘proq urg‘u qaratilgan, oilaviy-huquqiy shartnomalarning boshqa turlariga kamroq e‘tibor berilgan. Shu sababdan oilaviy munosabatlarni shartnomaviy-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish hamda oilaviy-huquqiy shartnomalar tizimiga oid masalalarni tadqiq etish dolzarb ahamiyatga ega.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Tadqiqot ishi Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan va ilmiy-tadqiqotning ustuvor yo‘nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** oilaviy munosabatlarni shartnomaviy-huquqiy tartibga solishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish, oila a‘zolari manfaatlarini himoya qilishda shartnomalarning o‘rnini belgilash hamda ushbu sohada qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ijtimoiy-huquqiy jihatdan oilaviy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash va yoritib berish;

oilaviy-huquqiy munosabatlarning mazmun-mohiyatini, ularning fuqarolik huquqiy munosabatlardan farqini aniqlash;

oilaviy munosabatlarni shartnomaviy-huquqiy tartibga solish tushunchasi, mazmuni va ahamiyatini tahlil qilish;

“oilaviy-huquqiy shartnoma” tushunchasi, uning huquqiy tabiati, funksiyalari ilmiy-nazariy tahlil etish hamda uning ilmiy ta‘rifini ishlab chiqish;

---

<sup>6</sup> Ushbu va boshqa olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

<sup>7</sup> Ushbu va boshqa olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

oilaviy-huquqiy shartnomaning huquqiy asoslarini o'rganish, amaldagi qonun hujjatlaridagi tartibga solinishini tahlil qilish hamda mavjud normalarni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi oilaviy-huquqiy shartnomalarning turlarini o'rganish hamda ularning tasnifini ishlab chiqish;

xorijiy davlatlarda oilaviy munosabatlarni shartnomaviy-huquqiy tartibga solish mexanizmlarini o'rganish va qiyosiy tahlil qilish;

xorijiy huquqiy tizimlardagi oilaviy-huquqiy shartnomalar ijro mexanizmlari va samarali usullarni tadqiq qilish;

er-xotinning mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi shartnomalarni tahlil etish;

nikoh shartnomasining mohiyati hamda mazmunini tahlil qilish ushbu shartnomani amalda tuzish bilan bog'liq muammolarni aniqlash;

er va xotinning umumiy mulkiga oid munosabatlarni tartibga soluvchi shartnomalarni tahlil qilish hamda boshqa shartnomalardan ajralib turuvchi xususiyatlarini ochib berish;

oilaviy munosabatlar subyektlarining o'zaro ta'minot berish to'g'risidagi shartnomalarning huquqiy tabiatini o'rganish hamda ularni tuzish borasidagi muammolarni aniqlash;

bolaning yashash joyi va uni tarbiyaga olishga oid munosabatlarni shartnoma orqali tartibga solishning qonunchilikdagi muammolarini aniqlash va tahlil qilish;

ota-onadan alohida yashagan holatda ota-onalik huquqlarini amalga oshirishga oid munosabatlarni tartibga soluvchi shartnomalarni o'rganish;

oilaviy-huquqiy shartnomalarning ijrosini ta'minlashda yuzaga keladigan muammolarni aniqlash hamda amaliyotni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

raqamlashtirish sharoitida oilaviy-huquqiy shartnomalarni tuzish, elektron shaklda rasmiylashtirish va ularning huquqiy kuchini ta'minlash masalalarini o'rganish hamda amaliyotda qo'llash mexanizmini tahlil qilish;

oilaviy-huquqiy shartnomalarning ijrosini raqamli texnologiyalar orqali nazorat qilish va ta'minlash imkoniyatlarini baholash, shuningdek, raqamlashtirish asosida huquqiy aniqlik va samaradorlikni oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida oilaviy munosabatlarni shartnomaviy-huquqiy tartibga solish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy va huquqiy munosabatlar tizimi olingan.

**Tadqiqotning predmeti** oilaviy munosabatlarni shartnomaviy-huquqiy tartibga solishga oid qonunchilik normalari, huquqni qo'llash amaliyoti bilan bog'liq muammolar hamda ilmiy-nazariy qarashlardan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda tizimli, analiz va sintez, qiyosiy-huquqiy tahlil qilish, normativ-huquqiy va amaliy tahlil, sotsiologik so'rov, umumlashtirish, mantiqiylik, huquqni qo'llash va sud amaliyotini tahlil qilish kabi usullar qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

oilalarga ta'sirchan metodik, konsultativ va amaliy yordam ko'rsatishning samarali tizimini yaratish, mediatorlik institutining rolini kuchaytirishda davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda chora-tadbirlarni amalga oshirish asoslab berilgan;

nikohlanuvchilarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularga oiladagi nizoli holatlarni hal qilishning huquqiy va psixologik asoslarini o'rgatish, oilalarni mustahkamlash, oilaviy ajrashishlarning oldini olishda oilaviy-huquqiy shartnomalar va ularni qo'llash zaruriyati asoslab berilgan;

notinch va muammoli oilalarda xotin-qizlar bilan sog'lomlashtirish bo'yicha amaliy ishlar olib borish va nizoli holatlarni bartaraf etish, oila a'zolari va qarindoshlar o'rtasidagi oilaviy munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan tushuntirish ishlarini tashkil etish asoslab berilgan;

vasiylik va homiylik organlarining vasiylik va homiylikni belgilash, tugatish, bolalarni tutingan ota-onalarga tarbiyaga berish, ular bilan tuzilgan shartnomalarni bekor qilish, vasiylar va homiylar yoki tutingan ota-onalarni o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod etish yoxud chetlashtirish bo'yicha choralar ko'rish vakolatiga ega bo'lishi lozimligi asoslab berilgan;

vasiylik va homiylik organlarining bolalarni tutingan (foster) oilaga berish bo'yicha tutingan ota-onalar bilan shartnomalar tuzish vakolatiga ega bo'lishi asoslab berilgan;

bolalar tutingan (foster) oilalarga vakolatli organ bilan bolani olish istagini bildirgan shaxslar o'rtasida tuziladigan shartnoma asosida berilishi, oilaviy bolalar uyiga bolalar shartnoma asosida qisqa va uzoq muddatli hamda ixtisoslashtirilgan joylashtirish shakllarida joylashtirilishi, bunda vasiylik va homiylik organlarining vakolatlarini aniqlashtirish asoslab berilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

oilaviy-huquqiy shartnomalarning huquqiy tabiati, ularning qonuniy asoslari va ijtimoiy ahamiyati tahlil qilingan, oilaviy nizolarni suddan tashqari hal qilishda shartnomaviy munosabatlarning roli asoslab berilgan;

oilalarning huquqi metodologiyasida oilaviy-huquqiy shartnomalar asosida vujudga keluvchi majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash va oilaviy-shartnomaviy javobgarlikka oid masalalarni ishlab chiqish to'g'risidagi takliflari asoslantirilgan;

nikoh shartnomasida mulkiy munosabatlar bilan birga, ayrim shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga solish bo'yicha oila qonunchiligini takomillashtirish yuzasidan taklif asoslab berilgan, nikoh shartnomasining namunaviy shakli ishlab chiqilgan;

ota-ona alohida yashagan hollarda bolalar manfaatlarini himoya qilish uchun shartnomaviy mexanizmlarni joriy etish borasida yangi yondashuvlar asoslab berilgan;

oilalarning mustahkamligini ta'minlash borasida oila a'zolariga oilaviy nizolarni o'zaro kelishuv asosida, zaruriy holatlarda esa malakali mutaxassislariga murojaat qilgan tarzda kelishuv madaniyatini shakllantirishga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish, mediativ usullar orqali oila a'zolarida murosa qilish ko'nikmasini hosil qilish choralarini ko'rish asoslab berilgan;

oilaviy-huquqiy shartnomalarni tizimlashtirish va ularni qo'llash ko'lamini kengaytirish, kelishuv asosida nizolarni hal qilish vositasi sifatida foydalanish borasida targ'ibot ishlarini amalga oshirishga oid taklif asoslab berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olingani, xalqaro tajriba va milliy qonunchilik hujjatlarining o'zaro tahlil qilingani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Oilaviy munosabatlarni shartnomaviy-huquqiy tartibga solish ilmiy-nazariy jihatdan hamda huquqni qo'llash va sud amaliyotini tadqiq etish asosida aniqlanib, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning hozirgi zamon tendensiyalarini inobatga olgan holda, talaba va izlanuvchilarning bilim hamda ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan, shuningdek, fuqarolik va oila huquqida er va xotin, bolalarning huquq va manfaatlarini ta'minlash bilan bog'liq o'quv mashg'ulotlari doirasida foydalanish hamda sohaga doir yangi ilmiy tadqiqotlar olib borishda namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, sohaga doir ilmiy muammolarni tadqiq etish, huquqni himoya qilish va javobgarlikni belgilashga doir muammolarga ilmiy yechim topish, O'zbekiston Respublikasining oila huquqi sohasidagi qonunchiligini takomillashtirish, "Fuqarolik huquqi", "Oila huquqi", "Mulk huquqi" fanlarini o'qitish va ushbu fanlar bo'yicha yoziladigan darslik hamda o'quv qo'llanmalarini yaratish, ma'ruza matnlari, o'quv kurslarining dasturlarini tuzish, ilmiy-tadqiqot ishlari hamda fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Oilaviy munosabatlarni shartnomaviy-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish bo'yicha olingan xulosa, taklif va tavsiyalar asosida:

oilalarga ta'sirchan metodik, konsultativ va amaliy yordam ko'rsatishning samarali tizimini yaratish, mediatorlik institutining rolini kuchaytirishda davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda chora-tadbirlarni amalga oshirish borasidagi taklif, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini tartibga solish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 500-sonli qarorining 1-ilova 3-bob, 12-band z) kichik bandining 5-xatboshisini tayyorlashda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasining 2025-yil 26-fevraldagi 01-02/146-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishida oilalar uchun ta'sirchan yordam ko'rsatish tizimini yaratish va oilaviy nizolarni muqobil usullar orqali hal etish tizimini kuchaytirishga hamda samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

nikohlanuvchilarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularga oiladagi nizoli holatlarni hal qilishning huquqiy va psixologik asoslarini o'rgatish, oilalarni mustahkamlash, oilaviy ajrashishlarning oldini olish borasidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini tartibga solish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 500-sonli qarorining 1-ilova 3-bob, 12-band

z) kichik bandining 6-xatboshisini tayyorlashda inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining 2025-yil 26-fevraldagi 01-02/146-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, nizoli holatlarni kelishuv va murosaga asoslangan tarzda hal etish mexanizmlarini rivojlantirish orqali oilalarni mustahkamlash va ajrashishlarning oldini olishga xizmat qilgan;

notinch va muammoli oilalarda xotin-qizlar bilan sog‘lomlashtirish va nizoli holatlarni bartaraf etish bo‘yicha amaliy ishlar olib borish, oila a‘zolari va qarindoshlar o‘rtasidagi oilaviy munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan tushuntirish ishlarini tashkil etishga doir taklif O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini tartibga solish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 500-sonli qarorining 1-ilova 3-bob, 12-band n) kichik bandining 7-xatboshisini tayyorlashda inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining 2025-yil 26-fevraldagi 01-02/146-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi notinch va muammoli oilalarda xotin-qizlar bilan sog‘lomlashtirish ishlarini olib borish, nizoli holatlarni kelishuv yo‘li bilan hal etish hamda oila a‘zolari va qarindoshlar o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot ishlari samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

vasiylik va homiylik organlarining vasiylikni va homiylikni belgilash, tugatish, bolalarni tutingan ota-onalarga tarbiyaga berish, ular bilan tuzilgan shartnomalarni bekor qilish, vasiylar va homiylar yoki tutingan ota-onalarning o‘z majburiyatlarini bajarishdan ozod etish yoxud chetlashtirish bo‘yicha choralar ko‘rish vakolatiga ega bo‘lishi kerakligiga oid taklif O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-apreldagi “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-829-sonli Qonunning 5-moddasi 9-bandini tayyorlashda inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 12-martdagi №3/dn-51-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi ota-onalarning farzandlariga vasiy va homiy tayinlashda shartnoma majburiyatlarini bajarish, bajarmagan holatida javobgarlikning yuzaga kelishiga oid munosabatlarni takomillashtirishga xizmat qilgan;

vasiylik va homiylik organlarining bolalarni tutingan (foster) oilaga berish bo‘yicha tutingan ota-onalar bilan shartnomalar tuzish vakolatiga ega bo‘lishiga oid taklif O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-apreldagi “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-829-sonli Qonunning 9-moddasi 5-bandini tayyorlashda inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 12-martdagi №3/dn-51-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi bolalarni tutingan (foster) oilaga berish bo‘yicha

tutingan ota-onalar bilan shartnomalar tuzishda vasiylik va homiylik organlarining vakolatli bo'lishiga xizmat qilgan;

bolalar tutingan (foster) oilalarga vakolatli organ bilan bolani olish istagini bildirgan shaxslar o'rtasida tuziladigan shartnoma asosida berilishi; oilaviy bolalar uyiga bolalar shartnoma asosida qisqa va uzoq muddatli hamda ixtisoslashtirilgan joylashtirish shakllarida joylashtirilishi, bunda vasiylik va homiylik organlarining vakolatlarini aniqlashtirishga oid taklif O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-apreldagi "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-829-sonli Qonunning 9-moddasi 11-bandini tayyorlashda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 12-martdagi №3/dn-51-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi bolalarni tutingan oilalarga shartnoma asosida berilishida hamda ushbu munosabatlarni shartnoma asosida rasmiylashtirilishida vasiylik va homiylik organlarining vakolatlari aniqlashtirilishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Tadqiqot natijalari 11 ta, jumladan, 7 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 29 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, 1 ta ilmiy risola, 27 ta (7 tasi xorijda) maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, o'n ikki paragrafdan iborat to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tarkib topgan bo'lib, uning hajmi 269 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** (yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi) **qismida** mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Oilaviy munosabatlarni shartnomaviy-huquqiy tartibga solishning umumiy tavsifi**" deb nomlanib, unda oilaviy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari va ularni shartnomaviy-huquqiy tartibga solish asoslari, oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi shartnomalar hamda ularning tasnifi, xorijiy davlatlarda oilaviy munosabatlarni tartibga solish mexanizmlari tahlil qilingan.

Ushbu bobning “Oilaviy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari va ularni shartnomaviy-huquqiy tartibga solish asoslari” deb nomlangan birinchi paragrafida muallif tomonidan ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida oilaviy munosabatlar, shaxsiy oilaviy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlandi, faktik oilaviy munosabatlar va oilaviy-huquqiy munosabatlar, fuqarolik huquqiy munosabatlar bilan oilaviy-huquqiy munosabatlar o‘rtasidagi umumiylik va o‘zaro farqlar tahlil etildi. Oilaviy munosabatlar subyektlari o‘rtasidagi shaxsiy munosabatlar mulkiy munosabatlarga nisbatan keng doirani tashkil qilishi va oila turmush doirasida katta ahamiyatga egaligi, mazkur munosabatlarning huquq normasi orqali tartibga solish imkoniyatining chegaralanganligi, ular oila a‘zolarining shaxsiy va psixologik holatlari hamda o‘zaro shaxsiy xulq-atvorlariga bog‘liq ekanligi asoslab berildi.

Muallif oilaviy munosabatlarni shaxsiy xarakterga egaligi, subyekt tarkibining alohida xususiyatligi, oilaviy munosabatlarning ishonch asosida qurilganligi, shaxsiy munosabatlarning mulkiy munosabatlarga nisbatan ustuvorligi hamda oilaviy munosabatlarda tenglik darajasi ham muhim ahamiyatga egaligini asoslab beradi. O.S.Ioffe, M.V.Antokolskaya, A.P.Sergeyev, O.N.Nizamiyeva, F.M.Otaho‘jayev, N.F.Imomov, J.I.Yuldashev kabi olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari va xulosalarini tahlil etish orqali oilaviy munosabatlarni tartibga solishning dispozitiv usul, vosita va mexanizmi sifatida oilaviy-huquqiy shartnoma institutining ahamiyati asoslab berilgan. Oilaviy munosabatlarni shartnomaviy-huquqiy tartibga solish tushunchasiga ta’rif ishlab chiqilgan.

Mazkur bobning “Oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi shartnomalar hamda ularning tasnifi” deb nomlanuvchi ikkinchi paragrafida oilaviy-huquqiy shartnoma, uning tabiati, fuqarolik huquqiy shartnomadan ajralib turuvchi jihatlari hamda nazariyada oilaviy-huquqiy shartnomalarning turlari bo‘yicha tasniflari tahlil qilingan. Muallif shartnoma va kelishuv tushunchalarining yuridik jihatlari ahamiyat qaratib, shartnoma huquqi nazariyasidagi *ex ante* va *ex post* yondashuvlariga tayangan holda qonunchilikda oilaviy-huquqiy shartnoma tushunchasini qo‘llashni asoslab bergan. M.V.Antokolskaya, A.M.Nechayeva, N.N.Tarusina, M.J.Mukanova, I.V.Zlobina, L.A.Xursilava, S.Y.Chashkova, R.D.Ro‘ziyev, Y.A.Suxanov, M.Braginskiy, A.A.Demin, U.Sh.Sharaxmetova, D.I.Babajanova kabi olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari asosida oilaviy-huquqiy shartnomaga oid ilmiy ta’rif ishlab chiqilgan, shuningdek, tartibga solinuvchi munosabatlarning predmetiga asoslanib, huquqiy oqibati va majburiyat yuklash xususiyatidan kelib chiqqan tarzda mualliflik tasnifi ishlab chiqilgan.

Ushbu bobning “Xorijiy davlatlarda oilaviy munosabatlarni shartnomaviy-huquqiy tartibga solish mexanizmlari” deb nomlanuvchi uchinchi paragrafida muallif xorijiy mamlakatlarda oilaviy munosabatlarni shartnomaviy-huquqiy tartibga solishda e‘tiborga olingan jihatlari, oilaviy-huquqiy shartnomalarning turlari, mexanizmlari hamda chet el huquqiy doktrinasida qo‘llaniladigan yondashuvlarni atroflicha tahlil qiladi.

Dissertant mazkur masalani aniqroq va to‘liqroq yoritish maqsadida oilaviy munosabatlarni shartnomaviy-huquqiy tartibga solishning mamlakatlar huquqiy tizimlariga asoslanib, to‘rtta model – imperativ, dispozitiv, diniy-shartnomaviy aralash turga ajratib o‘rganadi. Jumladan, anglo-sakson huquq tizimiga mansub

davlatlar (AQSh, Buyuk Britaniya)da nikohdan oldingi shartnoma (prenuptial agreements) va nikoh davomidagi (postnuptial agreements) shartnomalar keng qo'llanilishi, er-xotinning mulkiy munosabatlarning aniq tartibga solinishini atroflicha tahlil etadi. Mulknı taqsimlashni tartibga soluvchi shartnomalar, bolalar tarbiyasi hamda vasiylik kelishuvlari, farzand tarbiyasiga oid shartnomalarnı tahlil etishda anglo-sakson huquq tizimining sud-huquq amaliyotidagi ishlardan misollar keltiriladi. Mazkur davlatlarda keng qamrovli shartnoma erkinligi mavjudligi, MDH va Islom mamlakatlarida an'anaviy cheklovlar saqlanib qolayotganligini tahlil qiladi. Romano-german huquq tizimi (Fransiya, Germaniya, Italiya) qonunchiligi va sud amaliyoti asosida oilaviy-huquqiy shartnomalar davlat qonunchiligi bilan tartibga solinishi, shaxsiy nomulkiy munosabatlarnı tartibga solish nuqtayi nazaridan chegaralarga ega ekanligi ochib beriladi. Shuningdek, Islom huquq tizimiga mansub mamlakatlar (masalan, Saudiya Arabistoni, Eron)da nikoh shartnomalari shariat asosida shakllantirilishi va oilaviy munosabatlarning asosiy tartibga soluvchi mexanizmi sifatida xizmat qilishi, diniy normalar asosida nikoh munosabatlariga kirishish, aralash huquq tizimlarining yaratilganligi shartnoma munosabatlarning ham o'ziga xosligini vujudga keltirganini tahlilda keltirib o'tadi.

Tadqiqotchi mazkur paragrafda ayrim davlatlar (Kanada, Fransiya, Misr, Birlashgan Arab Amirliklari, Saudiya Arabistoni, Qatar, Turkiya)ning qonunchiligi hamda oilaviy-huquqiy shartnomalarning oila qonunchiligida rivojlanishini oilaviy munosabatlarnı tartibga solishdagi roli hamda tuzilish shakllari, turlari bo'yicha tahlil qilish asosida milliy qonunchilikda oilaviy-huquqiy shartnomalarnı qo'llash amaliyotini takomillashtirish yuzasidan asoslangan takliflarnı keltirib o'tadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Mulkiy munosabatlarnı tartibga soluvchi shartnomalar”** deb nomlanib, unda er va xotinning mulkiy munosabatlarini tartibga soluvchi shartnomalar, er va xotinning umumiy mol-mulki bilan bog'liq munosabatlarnı tartibga soluvchi shartnomalar hamda oilaviy munosabatlar subyektlarining o'zaro ta'minot berish to'g'risidagi shartnomalar tahlil qilingan.

Ushbu bobning “Er va xotinning mulkiy munosabatlarini tartibga soluvchi shartnomalar” deb nomlangan birinchi paragrafida amaliyotda oilaviy nizolar orasida mulkiy munosabatlar bilan bog'liq nizolarning ko'pligi, mulkiy munosabatlarnı tartibga solishda shartnomaning roli va ahamiyati, ayniqsa, nikoh shartnomasining bu boradagi roli tahlil qilinadi. Tahlilda nikoh shartnomasining huquqiy tabiati O'zbekiston qonunchiligi va MDH davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Belarus) hamda AQSh, Yevropa mamlakatlarining shartnoma tuzish amaliyoti qiyosiy tahlil etiladi.

Tadqiqotchi er va xotin o'rtasidagi mulkiy munosabatlar oila huquqining muhim instituti ekanligi, bu munosabatlar nikohgacha va nikoh davomida orttirilgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va ularni tasarruf etish masalalarini, shuningdek, er-xotinning bir-birini qo'llab-quvvatlash bo'yicha majburiyatlarning qamrab olinishiga oid nazariy tahlillarnı keltirib o'tadi. Oilaviy-huquqiy shartnomalar orasida mulkiy munosabatlarnı tartibga soluvchi shartnomalar er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish, nikoh shartnomasi, ota-ona va voyaga yetmagan bolalar umumiy mol-mulkni vujudga keltirishi to'g'risidagi kelishuv, aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv kabi oilaviy-huquqiy shartnomalarning tabiati

haqida fikrlarni keltiradi. Muallif oila a'zolarining mulkiy munosabatlarini tartibga soluvchi shartnomalar qat'iy belgilangan predmet va subyektlar tarkibiga egaligi, oila huquqida shartnoma tuzish erkinligining chegarasi, oiladagi mulkiy munosabatlar modeli turlicha bo'lishi, shuningdek, preventiv xarakterga egaligi bilan fuqarolik huquqiy shartnomalardan ajralib turuvchi jihatlarni asoslab beradi.

Tadqiqotchi M.I.Braginskiy, V.V.Vitryanskiy, N.M.Pchelinseva, P.V.Krashennikov, A.V.Miskin, Sh.U.Stepanyan, A.N.Levushkin, M.V.Antokolskaya, N.F.Zvenigorodskaya, Y.M.Vorojeykin, L.B.Maksimovich, M.X.Borotov, L.M.Burxanova, U.Sh.Sharaxmetova, Sh.Yuldasheva, D.I.Babajanova, L.J.Otegenova kabi sivilist olimlarning ilmiy-nazariy qarashlarini tahlil qilish asosida nikoh shartnomasini tuzish amaliyoti bilan bog'liq muammolar yechimiga oid takliflarni ishlab chiqqan.

Mazkur bobning "Er va xotinning umumiy mol-mulki bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi shartnomalar" deb nomlangan ikkinchi paragrafida, er va xotinning mol-mulkini bo'lish bilan bog'liq nizolar mazmuni, bu boradagi sud-huquq amaliyotida uchrayotgan muammolar, er va xotinning mol-mulkini bo'lishga oid nizolarni kelishuv asosida hal etish imkoniyatlari, nikoh shartnomasidan ajralib turuvchi belgilari, shuningdek, ushbu kelishuvning yuridik tabiatiga oid masalalar tahlil qilinadi.

Tadqiqotchi er va xotin mol-mulkini bo'lish to'g'risidagi kelishuv nikohdan ajrashish holatlarida nikoh paytida birgalikda orttirilgan mol-mulkni taqsimlash to'g'risidagi er va xotin o'rtasidagi kelishuv ekanligi, bunday bitimlarning asosiy jihati ularning ixtiyoriyligi va tomonlarning o'zaro roziligi, moslashuvchanlikni ta'minlashi va kim qanday mulkka egalik qilishini aniq belgilab berishi, shuningdek, har ikkala tomonning huquqlarini himoya qilishi, ajrashishdan keyin bir tomon zaif moliyaviy ahvolda qoladigan vaziyatning oldini olishi bilan ahamiyatli ekanligiga oid tahlillarni keltiradi. Sud jarayonida mulk bo'linishi paytida imkonsiz bo'lgan maxsus shartlarni kiritish imkoniyati, masalan, er-xotindan birining umumiy uyda yashash huquqini saqlab qolishi yoki ta'minot to'lash shartlarini batafsil ko'rsatishi, bu mulkni taqsimlash shartnomalarini er va xotin o'rtasidagi mulkiy masalalarda adolat va kelishuvga erishish muhimligiga oid fikrlar keltiriladi.

Muallif er xotinning umumiy mulkini tartibga solishga qaratilgan yana bir kelishuv turi hisoblangan er xotinning *birgalikdagi vasiyatnoma institutini* Germaniya, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, AQSh va Angliya qonunchiligi asosida tahlil qiladi. Birgalikdagi vasiyatnoma odatdagi yakka tartibdagi vasiyatnomadan farq qilishi, er yoki xotinning vafotidan keyingi mulkni bo'lish yoki taqsimlashga oid umumiy irodasini ifoda eta olishi hamda oilaviy mulkiy munosabatlarni tartibga solib, merosga oid oilaviy nizolarning oldini olishi bilan ahamiyatli ekanini asoslab beradi.

Tadqiqotchi tomonidan mavzu doirasida sotsiologik so'rov usuli orqali 422 ta turli yosh vakillari o'rtasida tasodifiy ehtimoliy tanlash usulidan foydalanilgan holda sotsiologik tadqiqot o'tkazilgan. Olingan natijalar respondentlarning aksariyat qismi nikoh shartnomasi to'g'risida xabardor va to'liqroq ma'lumotga ega ekanini namoyon etdi. Umuman olganda, 69,8 foiz tadqiqotda ishtirok etgan respondentlar nikoh shartnomasi to'g'risida eshitganliklarini bildirib o'tishgan bo'lsa, bu borada ayollarning ulushi 71,9 foizni, erkaklarniki esa 66,7 foizni tashkil etdi. Tahlillarga ko'ra, oilalar

ajrashish holatiga tushib qolganda, farzandlar taqdiri, shuningdek, aliment, uy-joy, molk-mulkni taqsimlash singari muammolar kishilarni ko'proq tashvishga soladi. So'rovda ishtirok etganlarning 68,9 foizi tomonidan mulkni taqsimlash asosiy muammo sifatida qayd etilgan bo'lsa, 50,0 foiz respondent uchun ajrashishdan keyin avtomashina mulkning bir qismi sifatida taqsimlanishini muammo sifatida ko'rilishi tadqiqot doirasida aniqlandi. Oila va nikohning asosiy vazifalaridan biri reproduktiv faoliyatni tartibga solish, nasl qoldirish va avlodlar davomiyligini ta'minlashdan iborat. Olingan natijalar aynan farzandlar hanuz asosiy oilaviy qadriyat sifatida saqlanib qolganligini ko'rsatdi. 94,3 foiz respondent bergan javobga ko'ra, oilalarda nikohdan ajrashish holatida ularni, asosan, farzandlar taqdiri tashvishga solishi aniqlangan. Ularning 78,3 foizini farzandlar taqdiri to'liq, 16,0 foizini esa qisman tashvishga solishi ayon bo'lgan.

Ushbu bobning "Oilaviy munosabatlar subyektlarining o'zaro ta'minot berish to'g'risidagi shartnomalar" deb nomlanuvchi uchinchi paragrafida ta'minot bilan bog'liq oilaviy-huquqiy munosabatlarning o'ziga xos jihatlari hamda ularni tartibga soluvchi shartnomalar tahlil etiladi. F.M.Otaxo'jayev, O.Ok'yulov, M.M.Xayitov, S.A.Muratova, D.A.Medvedev, P.V.Krashennikov, M.V.Antokolskaya, S.Y.Chashkova kabi olimlarning ilmiy-nazariy g'oyalari va qarashlarining tahlili asosida muallif aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvda fuqarolik-huquqiy shartnomaning klassik belgilari mavjudligini asoslaydi. Bunda taraflar o'rtasidagi huquqlarni o'rnatish, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan ishtirokchilarning bir xil xohish-irodasi inobatga olinishi, aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvni tuzish, bajarish, bekor qilish va haqiqiy emas, deb topishga nisbatan Fuqarolik kodeksi normalarining qo'llanilishi, shuningdek, aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvning qonunda belgilangan shakliga rioya qilmaslik oqibatlarining fuqarolik-huquqiy bitimlarning notarial shakliga rioya qilmaslik oqibatlari bilan bir xil ekanligi tahlil etiladi.

Muallif aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv fuqarolik-huquqiy shartnomalardan subyektlarning o'ziga xos huquqiy aloqasi va ijtimoiy tavsifi, aliment munosabatlari taraflarining tengligi, mulkiy mustaqilligi, shuningdek, iroda erkinligining fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchilariga nisbatan cheklanishi, aliment majburiyatlarining bepulligi va ularning shaxsiy xususiyatga egaligi bilan ajralib turishini asoslab bergan. Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv bu aliment munosabatlari sudlashmasdan, o'zaro kelishib, sodda, tinch yo'l bilan hal qilish usuli hisoblanadi. Bu tomonlar zarur deb hisoblagan shartlar va kafolatlarni shartnomaga mustaqil ravishda kiritishni va nihoyat, tomonlar o'rtasida yaxshi munosabatlarni saqlab qolishga imkon beradi. Dissertant sud-huquq amaliyotida uchrayotgan muammolarni tahlil qilgan tarzda voyaga yetgan farzandlarning ota-onaga nisbatan ta'minot berish masalasini Kanada, Avstriya, Germaniya, Chexiya va Xitoy qonunchiligi asosida tahlil qilib, alimentlar miqdorini aliment oluvchi shaxsning yoshi va real ehtiyojlarini inobatga olgan tarzda belgilash muhimligini asoslab beradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi shartnomalar**" deb nomlanib, unda bolaning yashash joyini belgilash bilan bog'liq shartnomalar, ota-ona alohida yashaganda esa ota-onalik huquqlarini amalga

oshirish bilan bog‘liq shartnomalar, shuningdek, bolalarni oilaga tarbiyaga olish to‘g‘risidagi kelishuvlar tahlil qilingan.

Ushbu bobning “Bolaning yashash joyini belgilash bilan bog‘liq shartnomalar” deb nomlangan birinchi paragrafida oilaviy ajrashishlar yoki nizoli holatlarda farzandlarning yashash joyini belgilash, mazkur holatda yuzaga keladigan munosabatlar hamda ularni kelishuv va shartnoma orqali tartibga solish, ushbu shartnomaning yuridik tabiatiga oid masalalar tahlil qilingan.

Muallif nikohdan ajrashish yoki ota-ona munosabatlari buzilgan holatlarda bolaning manfaatlari birinchi o‘rinda ko‘rilishi, ushbu qarorlarning ahamiyati oddiy oilaviy nizoni hal etishdan ancha muhimroq ekanligi, mazkur holatlarni bartaraf etishga qaratilgan huquqiy vositalar orasida bolaning yashash joyini belgilash bilan bog‘liq shartnomalar muhim ahamiyat kasb etishini tahlil qiladi. Tadqiqotchi tahlil asosida ajrashish yoki ota-ona munosabatlari buzilgan hollarda bolaning manfaatlari birinchi o‘rinda turishi shartligi va yashash joyini belgilashga oid kelishuvlar bolaning hissiy barqarorligi, uzoq muddatli rivojlanishi hamda ota-onalar o‘rtasida hamkorlikni ta‘minlashda hal qiluvchi vosita bo‘lishini asoslab beradi. Muallif amaldagi qonunchilik normalariga tayanadi va amaldagi tizimning afzalliklari bilan birga muammolarini ko‘rsatib beradi: ota-onalarning kelishish madaniyatining yetarli emasligi, mediatsiya mexanizmlaridan foydalanilmasligi, sud jarayoning ko‘p vaqt talab qilishi, ijro organlari nazoratining zaifligi, notenglik va bolalar fikrining e‘tibordan chetda qolishi. Shu bilan birga, xorijiy tajribalar, jumladan, Moldova misolida vasiylik organlari xulosasining ahamiyati ko‘rsatilib, milliy qonunchilikda bu yo‘nalishda samarali mexanizmlar ishlab chiqish zarurligi ta‘kidlanadi. Muallifning xulosasiga ko‘ra, bolaning yashash joyini belgilash bo‘yicha kelishuvlar faqat ota-onaning erkin va ixtiyoriy roziligi asosida, bolaning huquqlari va manfaatlarini ustuvor qo‘ygan holda, yozma va rasmiy tartibda rasmiylashtirilishi zarur. Bola fikrini hisobga olish mexanizmlarini kengaytirish, nizolarni muqobil hal etish va sud ishlari samaradorligini oshirish esa zamonaviy oila modeliga mos keladigan, bola huquqlarini to‘liq kafolatlaydigan milliy huquqiy tizimni shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur bobning “Ota-ona alohida yashaganda ota-onalik huquqlarini amalga oshirish bilan bog‘liq shartnomalar” deb nomlangan ikkinchi paragrafida bolaning ota-onadan alohida yashash holatida ota-ona o‘rtasidagi shartnoma asosida oila a‘zolarining barchasiga tegishli bo‘lgan huquqlarni amalga oshirish bilan bog‘liq munosabatlar tahlil etiladi. Tadqiqotchi asosiy e‘tiborni qanday holatlarda boladan alohida yashayotgan ota yoki ona o‘z majburiyatlarini amalga oshirishi hamda ushbu huquqdan ikkinchi tarafni mahrum etmagan holda kelishuvda belgilash masalalariga qaratadi. Tahlil asosida ajrashish yoki ota-onalar alohida yashagan hollarda ham bolaning ota-onasi va qarindoshlari bilan ko‘rishish huquqi saqlanishi shartligi, shuningdek, ota-onalik majburiyatlarini shartnomaviy kelishuvlar orqali amalga oshirish bolaning barqaror rivojlanishi uchun muhim vosita ekanligi asoslab beriladi. Muallif, shuningdek, bunday kelishuvlarni uchta ko‘rinishda tuzish imkoni borligini tahlil qiladi: hamkorlikda tarbiyalash kelishuvlari, vasiylikni amalga oshirish shartnomalari, bolaning ta‘lim olishini tashkil etish shartnomalari. Shu bilan birga, muallif amaldagi oila qonunchiligi, xorijiy davlat (Germaniya, Rossiya va Buyuk Britaniya)lar qonunchiligi, shuningdek, sotsiologik tadqiqotlarni tahlili asosida yagona standart va

mezonlarning yetarli emasligi, mediatsiya institutining zaifligi hamda kelishuvlarni ijro etish mexanizmlarining samarador emasligi kabi muammolarga e'tibor qaratadi. Shu bilan birga, muallif kelishuvlar bolaning yashash joyi, ta'lim jarayoni, ota-onalar bilan muloqot shakli va moliyaviy ta'minotini belgilashda asosiy rol o'ynashi, ular yozma ravishda tuzilib bolaning manfaatlari ustuvor qo'yilsa, oilaviy nizolarni kamaytirishga xizmat qilishi mumkinligini ta'kidlaydi. Tadqiqotchi mediatsiyani qonunchilikka nikohdan ajrashish jarayonini majburiy instansiya sifatida kiritish, ota-onalar o'rtasida huquqiy madaniyatni oshirish, shartnomalar uchun yagona huquqiy standartlar ishlab chiqish va bolaning fikrini hisobga olish tartibini kengaytirish orqali ota-onalik majburiyatlarini samarali amalga oshirish va bolaning huquqlarini to'liq himoya qilish mumkinligi asoslab beradi.

Ushbu bobning "Bolalarni oilaga tarbiyaga olish to'g'risidagi kelishuvlar" deb nomlangan uchinchi paragrafida bolalarni oila muhitida tarbiyalashga berish masalasi, ayniqsa, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish, vasiylik va homiylik institutining roli, vakolatlari, bolalarni oilaga joylashtirishning farzandlikka olish, oilaga tarbiyaga berish va tutingan (foster) oila shakllari, ushbu munosabatlarni shartnomaviy-huquqiy tartibga solish tahlil etilgan. Tadqiqotchi I.A.Bannikov, N.V.Volkova, L.Y.Mixeeva, N.F.Zvenigorodskaya, A.G.Yureva, I.Y.Pevsova, O.V.Fetisova, I.V.Drojgina, A.M.Nechayeva, S.Y.Chashkova, P.V.Krashennikov, Sh.R.Yuldasheva, Z.K.Soliyeva, U.M.Maxmudxodjayeva ilmiy-nazariy qarashlarini tahlil qilib, bolalarni oilaga joylashtirish shartnomalarining huquqiy tabiatiga oid turli qarashlarni umumlashtiradi hamda mazkur shartnomalarni aralash huquqiy xususiyatga ega hujjat sifatida e'tirof etish eng asosli yondashuv ekanini ta'kidlaydi. Tahlil jarayonida vasiylik va homiylik bilan bog'liq muammolarga e'tibor qaratadi. AQSh, Germaniya, Fransiya, Skandinaviya mamlakatlari, Janubiy Koreya va Yaponiyada bolalarni oilaga joylashtirish tizimi bo'yicha shakllangan ilg'or tajribalarni qiyosiy tahlil qiladi va bu tajribalarni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlarini ko'rsatib, vasiylik va homiylik organlarining vasiylikni va homiylikni belgilash, tugatish, bolalarni tutingan ota-onalarga tarbiyaga berish, ular bilan tuzilgan shartnomalarni bekor qilish, vasiylarni va homiylar yoki tutingan ota-onalarni o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod etish yoxud chetlashtirish bo'yicha choralar ko'rish vakolati asoslab bergan. Shu asosda tadqiqotchi bolalarni oilaga joylashtirish bo'yicha shartnomalarni takomillashtirish, nazorat mexanizmlarini xalqaro standartlarga mos ravishda rivojlantirish, oilalarga manzilli ijtimoiy yordam va qo'llab-quvvatlash choralari kengaytirish zarurligi haqidagi takliflarini ilgari suradi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi "**Oilaviy munosabatlarni shartnomaviy-huquqiy tartibga solishni rivojlantirish istiqbollari**"ga bag'ishlangan bo'lib, unda oilaviy munosabatlarni shartnomaviy-huquqiy tartibga solishning amaldagi dolzarb huquqiy muammolari, oilaviy munosabatlarni shartnomaviy-huquqiy tartibga solishni takomillashtirishda shartnomalarni tuzish va ijro etish masalalari, raqamlashtirish sharoitida oilaviy munosabatlarni shartnomaviy-huquqiy tartibga solishning rivojlanish istiqbollari o'z masalalar tahlil qilingan.

Mazkur bobning "Oilaviy munosabatlarni shartnomaviy-huquqiy tartibga solishning amaldagi dolzarb huquqiy muammolari" deb nomlangan birinchi paragrafida oilaviy munosabatlarni shartnomaviy-huquqiy tartibga solishda vujudga

kelayotgan muammolar tahlil qilingan. Muallif O'zbekistonda oilalarga konsultativ xizmatlarni ko'rsatish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash tizimini takomillashtirishga e'tibor qaratadi. Tadqiqotchi oilaviy munosabatlarning milliy o'ziga xos xususiyatlarini, ya'ni o'zbek oilasida jamoaviylik, qarindosh-urug'chilik rishtalari va mehr-oqibat tamoyillari asosiy o'rin tutishini, biroq migratsiya, globallashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida an'anaviy oilaviy qadriyatlarining transformatsiyaga yuz tutayotganini tahlil qiladi. Tahlil asosida u oilaviy nizolar sonining ortib borishi, sudlarda nihohdan ajrashish ishlari ko'payishi va ularning asosiy sabablari sifatida shaxslararo ishonch va mehrning zaiflashuvi, uchinchi shaxslarning aralashuvi, moddiy qiyinchiliklar va xiyonat kabi omillarni ko'rsatadi. Muallif olimlarning nazariy qarashlariga, jumladan, "turtki" va "orqaga ketish" konsepsiyalari hamda Germaniya, Finlyandiya, Singapur tajribalariga tayanadi, mediatsiya va oilaviy-huquqiy shartnomalarni nizolarni sudgacha hal etishda samarali vosita sifatida ko'radi. Dissertant Z.N.Esanova, I.A.Bannikov, N.V.Volkova, L.Y.Mixeyeva, N.F.Zvenigorodskaya, A.G.Yureva, I.Y.Pevsova, O.V.Fetisova, I.V.Drojgina, J.Oldham kabi olimlarning nazariy qarashlari hamda AQSh, Angliyada sud pretsedentlari, Janubiy Koreya va Yaponiya kabi davlatlarning oila qonunchiligini tahlil qilish asosida mediatsiya institutini rivojlantirish, huquqiy madaniyatni oshirish, oilaviy-huquqiy shartnomalar uchun aniq huquqiy normalar ishlab chiqish, oilaviy-huquqiy shartnomalar borasida elektron hujjatlar almashinuvini joriy etish, nikohlanuvchilarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlari faoliyatini takomillashtirish orqali oilaviy nizolarni kamaytirish, ota-onalik majburiyatlarini samarali amalga oshirish hamda oilaviy munosabatlarda barqarorlikni ta'minlash mumkinligini asoslab beradi.

Ushbu bobning "Oilaviy munosabatlarni shartnomaviy-huquqiy tartibga solishni takomillashtirishda shartnomalarni tuzish va ijro etish masalalari" deb nomlangan ikkinchi paragrafida zamonaviy oila huquqida shartnomalar taqdim etadigan moslashuvchanlik va mustaqillik hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotganligi, oila huquqida shartnomaviy-huquqiy tartibga solishning kelajagi globallashtirish, raqamlashtirish va jamiyatning o'zgarib borayotgan qadriyatlar oila munosabatlarini transformatsiya qilishda davom etgani sayin ortib borayotgani hamda ushbu tendensiya jarayonida oilaviy-huquqiy shartnomalarning ahamiyati bilan bog'liq masalalar tahlil etiladi. Muallif oilaviy-huquqiy shartnomalarning tuzilishi va ijrosi huquqiy, ma'naviy va madaniy omillar bilan uzviy bog'liq ekanini, ayniqsa, mamlakatda an'anaviy qadriyatlar va stereotiplar sabab shartnomaviy munosabatlarni amalda qo'llash murakkab kechayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, muallif B.Biks, G.Meyn, J.Oldham kabi xorijiy olimlar nazariyalarini tahlil qilib, shartnoma erkinligi bilan huquqiy kafolatlar o'rtasidagi muvozanatning ahamiyati oilaviy-huquqiy shartnomalarning mazmun jihatdan aniq va shaffof bo'lishi, shu bilan birga, muqarrar o'zgaruvchan hayotiy holatlarga moslashuvchan bo'lishi zarurligini asoslaydi.

Ushbu bobning "Raqamlashtirish sharoitida oilaviy munosabatlarni shartnomaviy-huquqiy tartibga solishning rivojlanish istiqbollari" deb nomlangan uchinchi paragrafida raqamlashtirish oila huquqidagi shartnomaviy-huquqiy tartibga solishni o'zgartirishi natijasida oilaviy-huquqiy shartnomalarni tuzish istiqbollari borasidagi tahlil keltiriladi. Muallif raqamlashtirish jarayonini nafaqat texnologik

rivojlanish, balki muloqot, qaror qabul qilish va mol-mulkni boshqarishda yangi ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarni shakllantiruvchi omil sifatida o'rganadi. Internet va raqamli texnologiyalarning oilaviy munosabatlarga ta'sirini tahlil qiladi hamda oilaviy-huquqiy shartnomalar nafaqat an'anaviy masalalarni, balki raqamli aktivlar, ma'lumotlar maxfiyligi, axborot xavfsizligi va bolalarning texnologiyadan foydalanishini tartibga solishda ham muhim huquqiy vosita sifatida namoyon bo'lishini asoslaydi. Shuningdek, "himoyalangan avtonomiya" modeli orqali shartnomaviy erkinlik va davlat kafolatlagan imperativ normalar o'rtasida muvozanat zarurligini ko'rsatib, sun'iy intellekt, blokcheyn va smart-shartnomalarning oila huquqidagi imkoniyatlarini tahlil qiladi. Tadqiqotchi Germaniya, Avstraliya, AQSh, Kanada va Skandinaviya davlatlari tajribalarini solishtirib o'rganadi va oilaviy huquqiy shartnomalar nafaqat huquqiy tartibga solish vositasi ekanini, balki nizolarni sudgacha hal qilishning samarali va mustaqil usuli sifatida baholash mumkinligini ta'kidlaydi.

## XULOSA

Oilaviy munosabatlarni shartnomaviy-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish mavzusini tadqiq etish natijasida quyidagi ilmiy-nazariy xulosalar, amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

### **I. Ilmiy-nazariy taklif va xulosalar:**

**1.1.** Dissertasiyada oilaviy-huquqiy munosabatlar hamda fuqarolik huquqiy munosabatlar o'rtasidagi farqli jihatlar va o'ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan. Oilaviy munosabatlar oilaviy-huquqiy munosabatlardan ancha keng doiradagi munosabatlarni o'z tarkibiga olib, o'ziga xos xususiyatga ega bo'lganligi sababli hamma vaqt ham qonun normasi bilan tartibga solish imkonsiz. Bunday toifadagi munosabatlar sirasiga shaxsiy nomulkiy munosabatlar kiradi. Oilaviy-huquqiy munosabatlar mazmuni nikoh va qon-qarindoshlikka asoslanadi. Ular fuqarolik huquqiy munosabatlar bilan ham o'xshashlik belgilariga, ham farqli belgilarga egadir. Shuningdek, bir qator mezonlarga ko'ra o'z tasnifiga ega bo'lib, farqli jihatlar qatoriga oilaviy munosabatlarning predmeti, subyekt tarkibi, funksiyasi, mazmuni kiradi.

**1.2.** Tadqiqot ishida oilaviy munosabatlarni shartnomaviy-huquqiy tartibga solish bilan bog'liq qator doktrinalar – maqomdan shartnomaga evolyutsion, xususiy tartibga solish, integratsiyalashgan xususiy huquq, o'ziga xoslik (sui generis), ijtimoiy-funksional, huquq va iqtisodiyot, munosabatlarga asoslangan shartnoma nazariyalari tahlil qilingan. Tahlillar asosida muallif shartnoma erkinligi bilan davlatning ijtimoiy nazorat mexanizmini uyg'unlashtirish imkoniyatini yaratuvchi integratsiyalashgan ijtimoiy model g'oyasini ilgari suradi.

**1.3.** Dissertatsiyada amalga oshirilgan tahlillar asosida nikohning huquqiy tabiati shartnomaviy mohiyatga egaligi asoslantirildi. Nikohning huquqiy tabiati uning shartnomaviy mohiyati bilan ifodalanadi. Musulmon huquqida nikoh huquqiy shartnoma sifatida talqin etilishi tomonlar o'rtasidagi huquq va majburiyatlarni belgilovchi bitim degan mazmun yotadi. Nikoh shunchaki, diniy marosim emas, balki tomonlar roziligi bilan tuziladigan yuridik kelishuv hisoblanib, "ijab va qabul"(taklif va rozi bo'lish) orqali tuziladigan bitim sifatida tan olinadi.

**1.4.** Dissertant nikoh institutining huquqiy tabiati insoniy, axloqiy va huquqiy mohiyatni mustahkamlash zarurati bilan belgilanishini asoslab beradi. Nikoh erkak va ayol jinsidagi shaxslarning teng huquqli va ixtiyoriy kelishuvi sifatida e'tirof etilishini qonunchilikda aniq belgilash zarur deb hisoblaydi. Nikoh nafaqat ruhiy yaqinlik yoki an'anaviy ijtimoiy munosabat, balki voyaga yetgan tomonlarning to'laqonli roziligi va teng huquqlilik tamoyillari asosida tuziladigan yuridik kelishuvidir.

**1.5.** Dissertatsiyada shaxsiy nomulkiy munosabatlar o'z xususiyatiga ko'ra oila qonunchiligida tor doirada belgilanganligi, ularni kengaytirish zarurati mavjudligi asoslab berildi. Xorijiy davlat (Fransiya, Germaniya, Kanada, Avstraliya, Turkiya, Misr)lar qonunchiligi tahlili asosida shaxsiy huquq va majburiyatlarga o'zaro hurmat, sadoqat, birga yashash, bolalar manfaatini ustuvor qo'yish, ajrashishdan so'ng o'zaro yordam kabi huquqlarni oila qonunchiligiga kiritish taklifi ishlab chiqildi. Oilaviy huquqlarni ishonchli himoya qilish vositalarining takomillashishi va konkretlashuvi dolzarbligidan kelib chiqib, ayrim shaxsiy nomulkiy munosabatlarni oilaviy-huquqiy shartnoma orqali tartibga solish imkonini kengaytirish muhim degan xulosaga kelindi.

**1.6.** Muallif tahlillarga tayangan holda, oilaviy munosabatlarni shartnomaviy-huquqiy tartibga solish tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: "Oilaviy munosabatlarni shartnomaviy-huquqiy tartibga solish deganda, nikoh, qarindoshlik, vasiylik va boshqa oilaviy munosabatlardan vujudga keluvchi shaxsiy nomulkiy hamda mulkiy munosabatlarni oilaviy-huquqiy shartnomalar orqali huquq va majburiyatlarni vujudga keltirish, bajarish va o'zgartirishga qaratilgan huquqiy tartibga solish shakli tushuniladi". Oilaviy munosabatlarni tartibga solishning mazkur shakli oila a'zolari o'rtasidagi huquqlar va majburiyatlar muvozanatini ta'minlaydi, bolalar va himoyaga muhtoj shaxslarning manfaatlarini ustuvor qo'yadi hamda oila institutining barqaror faoliyat yuritishi uchun asos yaratadi.

**1.7.** Tadqiqotda oilaviy-huquqiy shartnomalarning bir necha mezonlarga ko'ra tasniflari (funktional Y.P.Titarenko, fuqarolik-huquqiy I.V.Zlobina mustaqil oilaviy-huquqiy M.V. Antokolskaya, S.Y.Chashkova, M.J. Mukanova) tahlil etilib, tadqiqotchi tomonidan shartnoma huquqi nazariyasida *ex ante* va *ex post* yondashuviga tayangan tarzda mualliflik tasnifi keltiriladi. Dissertant oilaviy-huquqiy shartnomalarning predmetiga ko'ra, huquqiy oqibat va majburiyat yuklash xususiyatidan kelib chiqqan tarzda an'anaviy oilaviy-huquqiy shartnomalar, tashkiliy-rejalashtiruvchi shartnomalar hamda aralash tabiatga ega shartnomalarga ajratib tasniflashni ilgari suradi.

**1.8.** Dissertatsiyada oilaviy-huquqiy shartnomalar fuqarolik huquqiy shartnomalar hamda huquqning boshqa sohalaridagi shartnomalardan maqsadi, predmeti, subyektlarining tarkibi, taraflar erki, funksiyalari bilan ajralib turishi asoslab berilgan. Oilaviy-huquqiy shartnoma regulativ, preventiv, yuridik faktik funktsiya (statik va dinamik), tashkiliy funktsiya, nizoning oldini oluvchi va tarbiyalovchi funksiyalarga ega ekanligi asoslab berildi hamda o'ziga xos belgilari ajratib berildi. Muallif oilaviy-huquqiy shartnomaning ijtimoiy funksiyasi nuqtayi nazaridan uni ijtimoiy shartnoma ko'rinishida namoyon bo'lishini ilgari suradi. Bunda oilaviy-huquqiy shartnomaning asosiy funksiyasi sifatida shaxs va jamiyat o'rtasidagi huquqiy muvozanatni saqlash, ya'ni bolalar huquqlari, tenglik prinsipi, ijtimoiy muhtoj, zaif tomonning manfaatlarini inobatga olish kabi tamoyillarini ta'minlashda davlatning aralashuvi (bu oila

qonunchiligi normalarining shartnomaga talablarni o‘rnatishi hamda sud orqali nazorat qila olishni)ni nazarda tutadi.

**1.9.** Tadqiqotchi tomonidan oilaviy-huquqiy shartnomalar tushunchasining quyidagi mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi: “Oilaviy-huquqiy shartnoma – bu oila huquqi subyektlari o‘rtasida vujudga keladigan mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi, ularning huquq va majburiyatlarini belgilovchi, ixtiyoriylik va huquqiy tenglik prinsiplariga asoslangan, davlat tomonidan tan olingan va qonun hujjatlariga muvofiq tuzilgan huquqiy bitimdir”.

**1.10.** Xorijiy mamlakatlarda oilaviy-huquqiy shartnomalar mazmunini tahlil qilish asosida shartnoma tuzish erkinligi, individual nazorat tamoyillari ustuvorlik qilishi, nikoh shartnomasi nafaqat mulkiy munosabatlar, balki shaxsiy nomulkiy huquqlarni ham tartibga solishi tahlil qilindi. Muallif tahlil asosida imperativ model (Fransiya, Germaniya, Rossiya, Italiya, Yaponiya, Koreya, MDH davlatlari), dispozitiv model (Angliya, AQSh, Kanada, Avstraliya), diniy shartnomaviy model (BAA, Eron, Misr, Malayziya, Isroil) hamda aralash model (Xitoy, Ispaniya, Skandinaviya davlatlari)larni ajratib ko‘rsatgan holda, oilaviy munosabatlarni shartnomaviy-huquqiy tartibga solishning o‘ziga xos mexanizmlarini yoritib bergan. Tahlil asosida dissertant tomonidan ayrim turdagi yangi shartnomalarni milliy qonunchilikka joriy qilish zarurati mavjudligi asoslab beriladi. Nikohdan ajrashish shartnomasi, bolaning yashash va chetga chiqish shartlariga oid shartnoma, meros shartnomasi, er va xotinning birgalikdagi vasiyatnomasi, ota-onalik huquq va majburiyatlarini amalga oshirish to‘g‘risidagi shartnoma kabilarni kiritishni taklif etadi.

**1.11.** Oila a‘zolari o‘rtasidagi mulkiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan shartnomalar, xususan nikoh shartnomasiga oid huquqshunos olimlar (M.I.Braginskiy, V.V.Vitryanskiy, N.M.Pchelinseva, P.V.Krashennikov, A.V.Miskin, Sh.U.Stepanyan M.V.Antokolskaya, M.X.Baratov, L.J.Otegenova, L.Burxanova, A.V.Slepakova, Y.M.Vorojeykin, L.B.Maksimovich)ning ilmiy qarashlari hamda xorijiy davlatlar (Rossiya, Belorusiya, Qozog‘iston, Armaniston, Ispaniya, Italiya, AQSh, Kanada, Fransiya, Germaniya, Polsha, Janubiy Koreya, Xitoy va Avstraliya)ning huquqiy tajribasi tahlil etilib, oila a‘zolari o‘rtasidagi mulkiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan shartnomalar oila a‘zolariga amaldagi mol-mulkni kelishuv asosida tasarruf etishga, nizo vujudga kelgan vaqtda o‘zaro kelishib, sodda, tinch yo‘l bilan hal qilish imkonini yaratishini asoslab beradi. Dissertant ko‘chmas mulkka nisbatan huquqlarga oid qoidalarni nazarda tutuvchi nikoh shartnomasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim degan xulosaga keladi.

**1.12.** Aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv fuqarolik-huquqiy shartnomalardan subyektlarning o‘ziga xos huquqiy aloqasi va ijtimoiy tavsifi, aliment munosabatlari taraflarining tengligi, mulkiy mustaqilligi, shuningdek, iroda erkinligining fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchilariga nisbatan cheklanishi, aliment majburiyatlarining bepulligi va ularning shaxsiy xususiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Mazkur shartnoma ahamiyati va mazmuni bo‘yicha aholi o‘rtasida targ‘ibotni hamda huquqiy bilimlarini boyitib borish muhim. Bu, o‘z navbatida, oila a‘zolarining nizoli vaziyatlarni o‘zaro kelishuv orqali hal qilish madaniyatini shakllantirishga xizmat

qiladi. Dissertant kelishuvda alimentlar miqdorini bolaning yoki aliment oluvchi boshqa shaxsning yosh ehtiyojiga moslab hisoblashni taklif etadi.

**1.13.** Oilaviy nizolarni kelishuv yo‘li bilan hal etish bola manfaatlarini uchun zarur hisoblanadi. Bolalarning huquqlarini himoya qilish, ularning yoshi va ehtiyojlarini inobatga olgan holda yashash joyini belgilash, alohida yashovchi ota yoki onaning bola bilan muloqoti uchun sharoit yaratish orqali ijobiy muhit ta‘minlanadi. Nikohdan ajrashish jarayonida bolalar manfaatlarini himoya qilish nafaqat ularning yoshlik davridagi barqarorligi, balki kelgusida jamiyatning mukammal va mustahkam a‘zosi bo‘lib ulg‘ayishini ta‘minlash uchun ham muhim hisoblanadi.

**1.14.** Muallif tomonidan oila qonunchiligida nikohdan ajrashish uchun aniq sabablarning belgilab qo‘yilmaganligi bois sud amaliyotida oddiy va arziyas vajlar bilan ajrashish holatlari mavjudligini inobatga olgan tarzda, aniq nikohdan ajrashish sabablarini belgilash zarurligi ilgari suriladi. Shu jumladan, oilaviy-huquqiy shartnoma shartlarida ajrashishda aybdor bo‘lgan turmush o‘rtog‘iga fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo‘llash masalasi tahlil etiladi. Bunday yondashuv xiyonat, oilaviy tazyiq, zo‘ravonlik, yomon odatlarga berilish yoki oilaviy munosabatlarda “firibgarlik” kabi salbiy holatlarning oldini olishga xizmat qilib, nikoh institutining barqarorligi va oila a‘zolarining huquqiy manfaatlarini samarali himoya qilish imkonini yaratadi.

**1.15.** Oilaviy mediatsiya kabi nizolarni muqobil hal etish usullaridan bugunga kelib yetarli darajada foydalanilmaydi. Bu, asosan, malakali oilaviy mediatorlarning yetishmasligi, oilaviy mediatsiya xizmatlarining tizimli tashkil etilmaganligi va bu jarayonlarga nisbatan jamoatchilik ishonchining past darajada ekanligi sabab bo‘lib qolmoqda. Tahlillar asosida notariat organlariga mediativ taomillarni qo‘llash, qonunchilikda oilaviy mediatsiyani majburiy qilib belgilash hamda notariuslarga oilaviy-huquqiy shartnomalarni tuzish jarayonida konsultativ xizmat ko‘rsatish vakolatini berish taklif etiladi.

**1.16.** Oilaviy nizolar va bolaning yashash joyini belgilash bilan bog‘liq masalalar oilaviy mojarolarni yanada keskinlashtirishi hamda ota-onalar o‘rtasidagi kelishmovchiliklarning chuqurlashtirishini inobatga olgan holda, bolaning yashash joyini belgilash shartnomasini tuzish va uni nikohdan ajralgandan keyin ham ota-onalik mas‘uliyatini davom ettirishga qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday huquqiy yondashuv nafaqat oilaviy nizolarni kamaytiradi, balki, eng avvalo, bola huquqlarini ishonchli ta‘minlash va uning to‘laqonli tarbiyasi uchun barqaror huquqiy kafolat yaratadi.

**1.17.** Muallif bolani tarbiyalash, boladan alohida yashayotgan ota yoki onaning bola bilan muloqot qilishiga oid kelishuvlarni tuzish bo‘yicha vasiylik va homiylik organlari, notariuslar yoki mediatorlar uchun bunday kelishuvlarni rasmiylashtirish bo‘yicha aniq va yagona ko‘rsatmalarni ishlab chiqish zarurligini asoslaydi.

**1.18.** Bolalarni oilaga tarbiyaga olish vasiylik va homiylik organlari bilan bolani olish istagini bildirgan shaxslar o‘rtasida tuzilgan maxsus shartnoma asosida amalga oshiriladi. Kelishuvda tomonlarning huquq va majburiyatlari, bolaning huquqlari, tarbiya jarayonining shartlari va muddati belgilanadi. Bolalarni tarbiyaga olgan shaxslar o‘z huquqlaridan g‘arazgo‘ylik yoki boshqa tuban niyatlarda, tarbiyasidagi bolalarga zarar keltirgan holda foydalansalar, vasiylik va homiylik organi ularni javobgarlikka tortish masalasini qo‘zg‘atishga haqli.

**1.19.** Tutingan (foster) oila instituti bolani vaqtincha tarbiyaga joylashtirish orqali ularning manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi hamda davlat nazorati ostida maxsus shartnoma asosida amalga oshiriladi. Ushbu institut biologik ota-onaning ota-onalik huquqlarini saqlab qolgan holda, bolaning tarbiya va ijtimoiy rivojlanishi uchun barqaror huquqiy kafolat yaratadi. Bolalarni oilaga tarbiyaga olish to'g'risidagi kelishuvda bolalarni ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish, tarbiyaga olgan tutingan ota-onaning huquq va majburiyatlari, vasiylik va homiylik organlarining bolalarni tarbiyaga olgan oilaga nisbatan majburiyatlari, shuningdek, bunday kelishuvni bekor qilish asoslari va oqibatlarini ko'rsatilishi kerak.

**1.20.** Onlayn platformalar yaqin munosabatlar va qarindoshlik aloqalarining yangi shakllarini yaratib, insonlarga geografik va ijtimoiy to'siqlardan qat'i nazar muloqot qilish imkonini berish bilan birga, noan'anaviy shakldagi oilaviy munosabatlarning vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Oilaviy-huquqiy shartnomada raqamli aktivlar, jumladan, kriptovalyutalar, raqamli kontentga oid intellektual mulk huquqlari va onlayn hisoblar kabi zamonaviy mulk turlari bo'yicha er va xotinning mulkiy huquqlariga oid mulkiy rejimni belgilash shartlarini kiritish raqamli iqtisodiyot sharoitida taraflarning mulkiy huquqlarini ta'minlaydi.

**1.21.** Iqtisodiy rivojlangan davlatlar tajribasi nikohdan avval tuziladigan shartnomalarning keng qo'llanilayotganini ko'rsatadi, bunda fuqarolar moliyaviy mustaqillikni ta'minlash va kutilmagan vaziyatlarga tayyor turishga intilmoqda. Bolalar vasiyligi hamda mol-mulkni taqsimlashni tartibga soluvchi kelishuvlar esa bolalar manfaatlarini himoya qilish va oila a'zolari o'rtasida adolatli yechimga erishishga xizmat qilmoqda. Istiqbolda milliy qonunchilikni takomillashtirish jarayonida mazkur turdagi huquqiy munosabatlarni tartibga solish masalasiga alohida e'tibor qaratish lozim.

**1.22.** Globallashtirish va migratsiya jarayonlari chet el elementi bilan murakkablashgan oilalarda uyg'unlashtirilgan huquqiy asoslar yaratish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Yurisdiksiya bo'yicha nizolar, chet el sud qarorlarini ijro etish va nikohdan oldingi kelishuvlarni transchegaraviy tan olish kabi muammolar innovatsion huquqiy yechimlarni talab etmoqda. Surrogat onalik, hamkorlikdagi ota-onalik va yordamchi reproduktiv texnologiyalar bilan bog'liq kelishuvlar, shakllanayotgan yangi oilaviy munosabatlarni samarali tartibga solish uchun maxsus shartnomaviy asoslarga bo'lgan ehtiyojning ortib borayotganini ko'rsatmoqda. Bu borada yangi shartnoma turlarini fuqarolik va oila qonunchiligida aks ettirish zarurati mavjud.

**1.23.** Raqamlashtirish sharoitida oilaviy-huquqiy shartnomalar oilaviy munosabatlarni tartibga solish va nizolarni kelishuv asosida hal etishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, blokcheyn va smart-kontraktlar, sun'iy intellekt asosidagi yechimlar oilalarga mol-mulkni taqsimlash, farzand tarbiyasi bo'yicha majburiyatlarni belgilash hamda raqamli aktivlarni boshqarish va internet maxfiyligini ta'minlashda metodik va ishonchli huquqiy xizmatlarni ko'rsatishga imkon yaratadi.

**1.24.** Oilaviy-huquqiy shartnomalarni tuzish doirasida mediatsiya jarayoni hamda notarial idoralarda sun'iy intellektga asoslangan virtual yordamchi xizmatini joriy etish zarurati mavjud. Bu oilaviy nizolarni hal qilish samaradorligini sezilarli darajada

oshirish va oilaviy-huquqiy shartnomalarni tartibga solishni takomillashtirishda yangi imkoniyatlarni yaratadi.

## **II. Amaldagi qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar:**

2.1. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga quyidagi mazmundagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklif etiladi:

1) 5-modda quyidagi mazmundagi ikkinchi qism bilan to'ldirilsin:

### **“5-modda. Oila to'g'risidagi qonunchilik bilan tartibga solinadigan munosabatlar**

Oila to'g'risidagi qonunchilik nikoh tuzish, nikohning tugatilishi (tugashi) va uni haqiqiy emas deb topish shartlari va tartibini belgilaydi, oila a'zolari: er-xotin, ota-ona va bolalar (farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olinganlar) o'rtasidagi, oila to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda va doirada esa qarindoshlar hamda o'zga shaxslar o'rtasidagi shaxsiy nomulkiy va mulkiy munosabatlarni tartibga soladi, shuningdek ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni oilaga olish taklif etiladi shakl va qoidalarini, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish tartibini belgilaydi.

**Oila a'zolari o'rtasidagi shaxsiy nomulkiy va mulkiy munosabatlar, shu jumladan, nikoh tugashi bilan bog'liq munosabatlar o'zaro shartnoma asosida tartibga solinishi mumkin. Shartnomalar yozma shaklda tuzilib, qonunchilikka muvofiq tasdiqlanadi. Oila a'zolari o'rtasida tuziladigan shartnoma va kelishuvlar, oila qonunchiligi normalari va bolalarning manfaatlari ustuvorligi tamoyili hamda huquqiy imkoniyatlari cheklangan shaxslar manfaatlariga zid bo'lmasligi, tuzilishi, amal qilishi, o'zgartirilishi, bekor qilinishi va ijro etilishi oila to'g'risidagi qonunchilik va boshqa qonun hujjatlari talablariga muvofiq bo'lishi shart.**

2) 11-modda quyidagi mazmundagi uchinchi qism bilan to'ldirilsin:

### **“11-modda. Oilaviy huquqlarni himoya qilish**

Oilaviy huquqlarni himoya qilish sud tomonidan fuqarolik sud ishlarini yuritish qoidalari bo'yicha, ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda esa, vasiylik va homiylik organlari yoki boshqa davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Oilaviy huquqlarni himoya qilish ushbu Kodeksning tegishli moddalarida nazarda tutilgan usullarda amalga oshiriladi.

**Ushbu Kodeks fuqarolik qonun hujjatlari va nikoh shartnomasida belgilangan hollarda, shaxsiy huquq va manfaatlari buzilgan oilaviy munosabatlar ishtirokchisi sud orqali o'z huquqlarini himoya qilishi, yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni qoplashni talab qilishga haqli.”;**

3) **27-moddaning** ikkinchi xatboshidagi “notarial tartibda tasdiqlanishi mumkin” so'zlari “notarial tartibda tasdiqlanishi lozim” so'zlari bilan almashtirilsin;

### **“27-modda. Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish**

Er va xotinning umumiy mol-mulki er va xotin o'rtasida o'zaro kelishuv asosida bo'lib olinishi mumkin. Er va xotinning xohishi bilan ularning umumiy mol-mulknini bo'lish to'g'risidagi o'zaro kelishuvi **notarial tartibda tasdiqlanishi lozim”.**

4) 29-modda quyidagi tahrirda bayon etilsin:

### **“29-modda. Nikoh shartnomasi**

“Nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo‘lgan davrida va (yoki) er va xotin nikohdan ajratilgan taqdirda ularning mulkiy va **shaxsiy nomulkiy huquq** hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvi nikoh shartnomasi deb hisoblanadi”;

5) 30-modda quyidagi tahrirdagi to‘rtinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

**“30-modda. Nikoh shartnomasi tuzish**

Nikoh shartnomasi nikoh davlat ro‘yxatiga olinguniga qadar ham, shuningdek nikoh davrida ham tuzilishi mumkin.

Nikoh davlat ro‘yxatiga olingunga qadar tuzilgan nikoh shartnomasi nikoh davlat ro‘yxatiga olingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Nikoh shartnomasi yozma shaklda tuziladi va notarial tartibda tasdiqlanishi lozim.

**Ko‘chmas mulkka nisbatan huquqlarga oid qoidalarni nazarda tutuvchi nikoh shartnomasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim. Bunda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish asosi bo‘lgan nikoh shartnomasiga oid qayd tegishli reyestrda ifodalanishi shart”;**

6) 34-moddaning birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**“34-modda. Haq undirishni er-xotinning mol-mulkiga qaratish**

**Agar nikoh shartnomasida boshqacha holat belgilangan bo‘lmasa, er (xotin)ning majburiyatlari bo‘yicha haq undirish faqat uning mol-mulkiga qaratilishi mumkin. Ushbu mol-mulk yetarli bo‘lmagan taqdirda, haq undirishni er-xotinning mol-mulkiga qaratish uchun kreditor qarzdor er (xotin) ulushini er-xotinning umumiy mol-mulkidan ajratib undirib berilishini talab qilishga haqlidir”;**

Agar sud er (xotin)ning majburiyatlari bo‘yicha orttirilgan barcha ashyolar oila ehtiyojlari uchun ishlatilganligini aniqlasa, er-xotinning umumiy majburiyatlari bo‘yicha, shuningdek er (xotin)ning majburiyatlari bo‘yicha haq undirish er-xotinning umumiy mol-mulkiga qaratiladi. Bu mol-mulk yetarli bo‘lmagan taqdirda er-xotin ko‘rsatib o‘tilgan majburiyatlar yuzasidan ularning har biriga qarashli mol-mulk bilan sherik javobgar bo‘ladilar.

Agar er-xotinning umumiy mol-mulki ularning biri tomonidan jinoiy yo‘l bilan topilgan mablag‘ hisobiga orttirilgani yoki ko‘paygani sud hukmi bilan aniqlangan bo‘lsa, haqni undirish tegishli ravishda er-xotinning umumiy mol-mulkiga yoki uning bir qismiga qaratilishi mumkin.

Er-xotinning voyaga yetmagan bolalari yetkazgan zarar uchun javobgarligi fuqarolik qonunchiligi bilan belgilanadi”.

7) 38-modda quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**“38-modda. Nikohdan ajratish tartibi**

Nikohdan ajratish mediatsiya tartib-taomili qo‘llanilganidan so‘ng sud tartibida, ushbu Kodeksning 42- va 43-moddalarida nazarda tutilgan hollarda esa fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida amalga oshiriladi”;

8) 76-modda quyidagi mazmundagi beshinchi va oltinchi xatboshilar bilan to‘ldirilsin:

**“76-modda. Boladan alohida yashayotgan ota(ona)ning ota-onalik huquqini amalga oshirishi**

Boladan alohida yashayotgan ota (ona) bola bilan ko‘rishish, uning tarbiyasida ishtirok etish va ta‘lim olishi masalasini hal etishda qatnashish huquqiga ega.

Bola bilan birga yashayotgan ota (ona) bolaning ona (ota)si bilan ko‘rishishiga, agar bunday ko‘rishish bolaning jismoniy va ruhiy sog‘lig‘iga, axloqiy kamolotiga zarar keltirmasa, qarshilik qilmasligi kerak.

Ota-ona boladan alohida yashaydigan ota (ona)ning ota-onalik huquqlarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida yozma ravishda kelishuv tuzishga haqlidir. Agar ota-ona kelisha olmasalar, nizo ota-ona (yoki ulardan biri)ning talabiga binoan sud tomonidan vasiylik va homiylik organi ishtirokida hal qilinadi. Sudning hal qiluv qarori bajarilmaganda aybdor ota-onaga nisbatan qonunchilikda nazarda tutilgan choralar qo‘llaniladi. Sudning hal qiluv qarori qasddan bajarilmagan taqdirda sud boladan alohida yashayotgan ota (ona)ning talabiga binoan bola manfaatlarini va uning fikrini hisobga olgan holda bolani unga berish to‘g‘risida hal qiluv qarori chiqarishi mumkin.

Boladan alohida yashayotgan ota (ona) tarbiya, davolash, aholini ijtimoiy himoyalash muassasalari va boshqa shunga o‘xshash muassasalardan o‘z bolasi to‘g‘risida axborot olish huquqiga ega. Ota (ona) tomonidan bolaning hayoti va sog‘lig‘i uchun xavf-xatar bo‘lgandagina, ularga axborot berish rad etilishi mumkin. Axborot berishning rad etilishi ustidan sud tartibida shikoyat qilinishi mumkin.

**Agar bolaning yashash joyi belgilangan (ota) ona bolasi bilan birga mamlakatning boshqa hududiga ketsa yoki chet elga sayohat qilsa, boladan alohida yashayotgan (ota) ona axborot kommunikatsiya texnologiyalari yoki boshqa vositalar orqali bola bilan muloqot qilish huquqiga ega.**

**Boladan alohida yashayotgan ota (ona) bola bilan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yoki boshqa vositalar orqali muloqot qilish imkonini bola bilan birga yashayotgan ota (ona) yaratib berishga majbur”.**

### **III. Huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar:**

3.1. Notarial palatada oilaviy-huquqiy shartnomalarni elektron tarzda ro‘yxatdan o‘tkazish va saqlash tizimini yaratish. E-SHARTNOMA yagona elektron portalini joriy qilish jarayonida mazkur portalda yoki alohida notariat saytida shartnoma reyestrini yuritish, shartnomalarning ro‘yxatdan o‘tishi va saqlanishi, sudda ularni tezkorlik bilan taqdim etish imkoniyatini yaratish va shartnomalarning huquqiy kuchini oshirishga xizmat qilgan bo‘lar edi.

3.2. Oilaviy-huquqiy shartnomalarni sudda tasdiqlash va zaruriy holatlarda adolatlilik nazoratidan o‘tkazish tartibini joriy qilish. Bunda bola huquqlari, ijtimoiy jihatdan zaif tomon manfaatlarini himoya qilish va sui’istemol qilinishining oldini olish hamda noa’naviy shakldagi oilaviy munosabatlarni tartibga solish holatlarining oldini olishda oilaviy-huquqiy shartnomaning afzallik jihatlarini namoyon qilish nazarda tutiladi.

3.3. Oilaviy-huquqiy shartnomalarning namunaviy shakllarini ishlab chiqish va ularni vakolatli organ tomonidan tasdiqlash amaliyotda katta qulaylik yaratadi. Bunday yondashuv sudlar, notariuslar, va mediatorlar faoliyatida yagona standartlardan foydalanish imkonini berib, taraflarning huquq va majburiyatlarini aniq hujjatlashtirish, huquqiy xatoliklarni kamaytirish va shartnomalarni qo‘llash jarayonini soddalashtiradi.

3.4. Oilaviy-huquqiy shartnomalar majburiyatlarini va shartlarini buzganlik uchun javobgarlik choralari qo‘llash mexanizmlarini ishlab chiqish zarur. Bunda fuqarolik

javobgarlik ko‘rinishidagi jarima yoki ma’naviy zararni qoplash tartibini ishlab chiqishi va joriy qilishi nazarda tutiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01. ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
ЮРИДИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**САЙДИВАЛИЕВА ХУРШИДА ХОДЖИАКБАРОВНА**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ДОГОВОРНО-ПРАВОВОГО  
РЕГУЛИРОВАНИЯ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ**

12.00.03. – Гражданское право. Предпринимательское право.  
Семейное право. Международное частное право.

**АВТОРЕФЕРАТ**  
диссертации доктора юридических наук (DSc)

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2022.2.DSc/Yu201.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном юридическом университете. Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета ([www.tsul.uz](http://www.tsul.uz)) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

<b>Научный консультант:</b>	<b>Рузиев Рустам Джаббарович</b> доктор юридических наук, профессор
<b>Официальные оппоненты:</b>	<b>Караходжаева Дилором Мамировна</b> доктор юридических наук, профессор <b>Боротов Миродилжон Хомуджонович</b> доктор юридических наук, профессор <b>Кулдашев Нуриддин Абдуганиевич</b> доктор юридических наук, профессор
<b>Ведущая организация:</b>	<b>Университет Общественной безопасности</b> <b>Республики Узбекистан</b>

Защита диссертации состоится 25 октября 2025 года в 10:00 на заседании Научного совета DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 при Ташкентском государственном юридическом университете (Адрес: 100047, г. Ташкент, улица Сайилгох, 35. Тел.: (99871) 233-66-36; факс: (99871) 233-37-48; e-mail: [info@tsul.uz](mailto:info@tsul.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного юридического университета (зарегистрировано за № 1426). (Адрес: 100047, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 13. Тел.: (99871) 233-66-36).

Автореферат диссертации разослан «б» октября 2025 года.  
(протокол реестра №87 от «б» октября 2025 года).

*И.Р. Рустамбеков*

**И.Р. Рустамбеков**  
Председатель Научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
доктор юридических наук,  
профессор

*Д.Ю. Хабибуллаев*  
**Д.Ю. Хабибуллаев**  
Научный секретарь Научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
доктор юридических наук, профессор

*Б.К. Ходжаев*  
**Б.К. Ходжаев**  
Председатель Научного семинара при  
Научном совете по присуждению  
ученых степеней, доктор  
юридических наук, профессор



## ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (DSc))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире процессы глобализации оказывают значительное влияние на семейные отношения. Цифровизация, гендерное равенство, миграционные процессы и демографические изменения приводят к трансформации традиционного института брака и изменению семейных ролей. В 2023 году в рамках Европейского Союза самый низкий уровень браков был зарегистрирован в Словении (3,0 брака на 1000 человек) и Италии (3,1)<sup>1</sup>. Мальдивские острова имеют самый высокий уровень разводов в мире, что составляет 5,52 развода в год на 1000 человек. В США общий уровень разводов составил 2,7 на 1000 человек<sup>2</sup>.

В мире брачные договоры приобретают актуальное значение из-за увеличения числа разводов, изменения социальных норм и повышения финансовой независимости людей. В частности, показатель заключения брачных договоров среди супружеских пар в США вырос с 3 процентов в 2010 году до 15 процентов в 2023 году, а в Великобритании примерно 21 процент пар имеют брачный договор<sup>3</sup>. Это изменение практикуется представителями молодого поколения. Они рассматривают эти договоры не как признак недоверия, а как практический инструмент финансового планирования, защиты имущества и обеспечения безопасности бизнеса. Кроме того, увеличение числа повторных браков и смешанных семей сделало такие договоры необходимыми для решения вопросов наследования и обеспечения юридической определенности.

В Узбекистане укрепление института семьи, сохранение семейных ценностей, поддержание стабильности здоровой духовной среды в семье является одним из приоритетных направлений государственной политики. Несмотря на предпринимаемые в нашей стране усилия по сохранению стабильности семей, наблюдаются такие явления, как семейные конфликты и разводы. В январе-декабре 2024 года было зарегистрировано 271,8 тысяч браков, коэффициент брачности на 1000 населения составил 7,3 промилле, что на 0,5 промилле меньше по сравнению с 2023 годом (в 2023 году было 7,8 промилле). В 2024 году зарегистрировано 45,1 тысяч разводов.

Эти показатели демонстрируют необходимость проведения исследования и изучения научных подходов к таким вопросам, как регулирование имущественных и личных неимущественных отношений между членами семьи, применение альтернативных методов разрешения семейных споров, достижение культурного соглашения в процессе семейного развода с учетом прав и интересов детей.

В данной диссертации глубоко анализируются теоретические основы и практические аспекты договорного правового регулирования семейных отношений. В частности, исследуются правовая природа и перспективы

---

<sup>1</sup> [https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Marriage\\_and\\_divorce\\_statistics](https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Marriage_and_divorce_statistics)

<sup>2</sup> <https://www.verywellmind.com/how-many-marriages-end-in-divorce-facts-and-figures>

<sup>3</sup> <https://lordslibrary.parliament.uk/law-relating-to-pre-nuptial-agreements>

развития брачного договора, соглашений между родителями и детьми, договоров, регулирующих имущественные отношения, и соглашений, касающихся личных неимущественных отношений.

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени служит реализации Гражданского кодекса Республики Узбекистан (1996), Семейного кодекса Республики Узбекистан (1999), Закона «О гарантиях прав ребенка» (2008), Постановления Президента Республики Узбекистан «Об утверждении концепции укрепления института семьи в Республике Узбекистан» от 27 июня 2018 года №ПП-3808, Указа Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему ускорению работы по системной поддержке семьи и женщин» от 7 марта 2022 года № УП-87, Указа Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по совершенствованию деятельности Комитета семьи и женщин» от 21 декабря 2023 года №УП-208, Постановления Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по укреплению семьи и повышению активности женщин» от 21 декабря 2023 года № ПП-401, а также Постановления Кенгаша Сената Олий Мажлиса Республики Узбекистан «О мерах дальнейшего повышения эффективности проводимой работы по совершенствованию правовых основ института семьи и сохранению семейных ценностей» от 27 декабря 2024 года № ПК-29-V и других законодательных актов в данной сфере.

**Связь исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики.** Диссертационное исследование выполнено на основе приоритетного направления, определенного в разделе II «Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», предусматривающего развитие науки и технологий в республике и направленного на превращение принципов справедливости и верховенства закона в наиболее важное и необходимое условие развития нашей страны.

**Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации<sup>4</sup>.** Исследования по договорно-правовому регулированию семейных отношений широко проводятся в ведущих научных центрах и университетах мира. Среди ведущих учреждений, осуществляющих исследования в этом направлении, признаны Университет Индианы (США), Гарвардская школа права (США), Институт права Калифорнийского университета в Беркли (США), Оксфордский университет (Англия), Мюнхенский университет (Германия), Правовая школа Университета Миннесоты (США), Мельбурнский университет (Австралия), Университет Аль-Азхар (Индонезия), Волгоградский государственный университет (Российская Федерация), Московский государственный университет (Российская Федерация). В этих центрах в основном изучаются имущественные отношения супругов, разрешение семейных споров, брачные договоры и их виды, а также перспективы семейных договоров в условиях цифровизации.

---

<sup>4</sup> Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации был осуществлен на основе <https://www.iu.edu/>, <https://law.umn.edu/>, <https://www.ubc.ca/>, <https://www.law.ox.ac.uk/>, <https://uai.ac.id/en>, <https://www.law.berkeley.edu/research/>, <https://www.family.law.cam.ac.uk/> и других источников.

